INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

# Bekobod yangiliklari
# Новости Бекабада

*Bekobod shahar ijtimoiy-siyosiy va ommaviy haftalik gazetasi*

*Еженедельная городская социально-политическая газета*

№ 12 (152) 25 апрель 2023 йил, сешанба, вторник

ГОД ЗАБОТЫ О ЧЕЛОВЕКЕ И КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Газета издается с 14 марта 2020 года* ■ *Gazeta 2020 yil 14 martdan chiqa boshlagan*



## РАССМОТРЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО ОТРАСЛЯМ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

**17 АПРЕЛЯ Президент Шавкат Мирзиёев ознакомился с презентацией предложений, направленных на поддержку отраслей производства продовольственной продукции.**

В нашей стране принимаются меры для обеспечения изобилия и доступности основных видов продуктов питания. В результате возможностей, созданных для фермеров и предпринимателей, увеличивается объем производства такой продукции.

В частности, в 2022 году реализовано 1,4 тысячи животноводческих проектов, поголовье крупного рогатого скота достигло 14 миллионов, овец и коз - 24 миллионов. Количество птицеводческих хозяйств составило 1,3 тысячи, производство яиц увеличилось на 4 процента, мяса – на 28 процентов. В сфере рыбоводства реализовано 290 проектов, заготовлено 502 тысячи тонн рыбы. Было произведено 27 тысяч тонн меда.

В то же время в этих отраслях существует ряд проблем, связанных с нехваткой кормов, земли и оборотных средств. В связи с этим были изучены мнения представителей сферы и разработаны предложения.

На совещании ответственные лица представили информацию о мерах, запланированных на текущий год.

В частности, за счет грантов Международного фонда сельскохозяйственного развития в регионах будут созданы молокосборочные пункты. Каждый пункт будет кооперировать с не менее 100 домохозяйствами, заготавливающими молоко.

Кластерами будет построено 64 животноводческих комплекса. Стартуют мероприятия по маркировке и идентификации скота с привлечением средств Всемирного банка.

Из Фонда реконструкции и развития будет направлено 35 миллионов долларов на обеспечение птицеводческих хозяйств кормом и оборотными средствами. Следить за эффективностью использования кредитов будет ассоциация "Паррандасаноат". Предусмотрено увеличение суммы субсидий на импорт племенных цыплят.

Ожидается, что в результате указанных мер производство мяса птицы вырастет до 800 тысяч тонн в год.

Также предлагается ряд дополнительных возможностей для рыбоводства. В частности, отныне естественные водоемы будут сдаваться в аренду через интернет-аукцион. Будет реализован 241 отраслевой проект, в том числе по промышленному разведению креветок. В рамках государственной программы «Каждая семья – предприниматель» на рыбоводческие проекты намечено выделить кредиты без залога в размере до 50 миллионов сумов.

Отмечалось, что за счет этого в текущем году можно будет заготовить 850 тысяч тонн мяса рыбы.

Глава государства подчеркнул, что естественные водоемы и реки должны использоваться, помимо ловли рыбы, как центры экотуризма, способные привлечь местных и иностранных туристов.

Поставлена задача расширить работу по опылению сельскохозяйственных культур пчелами. Определены меры по размещению ульев по краям 50 тысяч гектаров садов и 200 тысяч гектаров полей, созданию условий и стимулированию населения к занятию пчеловодством.

Президентом даны дополнительные указания по совершенствованию мер поддержки.

## Ko'rik-tanlov «ENG NAMUNALI OILA»

**15 may – "Xalqaro oila kuni" munosabati bilan shahrimizdagi harbiy qismda "Eng namunali oila" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.**

Tanlovda ishtirok etgan 7 nafar harbiy oila vakillari "Tanishtiruv", "Men sevgan adib", "Dolzarb mavzu" kabi shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar. Ishtirokchilarning chiqishlari Bekobod shahar Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Nodira Nazarova, "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash" markazi rahbari M. Sharipova hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Bekobod shahar bo'linmasi rahbari M. Qo'zibayev tomonidan baholab borildi.

Ko'rik-tanlovda A.Abdujabborovlar oilasi g'oliblikni qo'lga kiritib, bellashuvning viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar. Tadbir ishtirokchilari harbiy qism komandirining Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Ra'no SAMIYEVA.**





***Mastura KARIMOVA, "Farhod" mahallasi Yoshlar yetakchisi:***

## YOSHLAR - ERTAMIZ EGALARI, KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARIDIR!

**So'nggi yillarda mamlakatimizda davlatimiz rahbari rahnamoligida tashabbuskor va iqtidorli yoshlarni aniqlash, iste'dodlarini namoyon etishlari, puxta bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa yosh avlod vakillarida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini yanada oshiryapti, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarori dasturilamal bolmoqda. Ma'lumki, joriy yilning 11-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yigilishda mamlakatimiz yoshlari hayoti va taqdirini tubdan hal qiluvchi muhim masalalarning korilishi yigit-qizlarimizni cheksiz faxrlantirdi.**

2 ►

## OCHIQ ESHIKLAR KUNI



Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda harbiy burchga sadoqat, o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat hissini shakllantirish muhim vazifalardan sanaladi. Ushbu maqsadda shahrimizdagi harbiy qismda “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etildi. Tadbirda barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etdilar. O‘quvchilar qurol-aslaha va harbiy texnika vositalari ko‘rgazmasi bilan tanishdilar.



## "TEMURBEK AVLODLARI": FAXRLI IKKINCHI O‘RIN

“Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasining Toshkent viloyati bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda jami 10 ta jamoa g‘oliblik uchun o‘zaro bahs olib borishdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, shahrimizdagi Ixtisoslashtirilgan san’at maktabi o‘quvchilaridan tarkib topgan "Temurbek avlodlari" jamoasi faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Tadbir so‘ngida jamoa a’zolari qimmatbaho sovg‘alar va diplomlar bilan taqdirlandilar.

**Jahongir MODAROV, 9226-harbiy qism harbiy xizmatchisi.**

## KEKSALAR VA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARGA SANATORIYLARDA DAVOLANISH UCHUN YO‘LLANMALAR BERISH TARTIBI

Mamlatatimizda keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga bugungi kunda keng imkoniyatlar yatilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrdagi 693-sonli qaroriga asosan, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo‘llanmalar berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish quyidagicha amalga oshiriladi.

Yo‘llanmalar O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarini rivojlantirish agentligi tizimidagi keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarga beriladi. Davlat xizmati Davlat xizmatlari markazlari yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali Agentlikning tuman (shahar) tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘limlari tomonidan ko‘rsatiladi. Yo‘llanmalar umumiy soni sanatoriylarning mavjud o‘rinlari hamda tegishli moliya yilida Davlat byudjetidan yo‘llanmalar uchun maqsadli tartibda nazarda tutiladigan byudjet mablag‘lari doirasida belgilanadi.

1 ←

## YOSHLAR - ERTAMIZ EGALARI, KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARIDIR!



***«Ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yoshlar bilan ishlash - biz uchun hayot-mamot masalasi. Biz yoshlarga bugundanoq sharoit qilib bermasak, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha inqilobiy tashabbuslarni ilgari surmasak, Yangi O‘zbekistonni qanday barpo qilamiz?»***

Shavkat MIRZIYOYEV.

Darhaqiqat, o‘tgan davrda yoshlar siyosati borasidagi ishlarni mahallada tashkil etish bo‘yicha mutlaqo yangi vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. 9 ming 400 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor o‘g‘il-qizlardan iborat yoshlar yetakchilari tanlab olindi. Mahallada bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyat yaratildi. O‘tgan yilning o‘zida yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so‘m kredit ajratilib, 150 mingta loyiha ishga tushdi, 325 mingta ish o‘rni yaratildi; 32 mingdan ziyod yoshlarga subsidiya ajratilib, ularga asbob-uskuna, mehnat qurollari va komp'yuter olib berildi.

Yig‘ilishda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinishi ta'kidlandi. 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, ular 3 toifaga ajratildi. Endilikda ular bilan manzilli, aniq mezonlar asosida ishlanishi ta'kidlandi. Bunda: yaxshi o‘qiyotgan, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo‘lgan 4,4 million yoshlar “yaxshi” toifaga; turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh “o‘rta” toifaga kiritildi; davlatning g‘amxo‘rligi va e'tiborini kutayotgan hamda ko‘makka muhtoj 396 ming nafar yoshlar “ahvoli og‘ir” toifasiga alohida ajratib olindi.

Bizning “Farhod” MFY da 8 ta ko‘cha, 7 ta ko`p qavatli uylar bo‘lib, jami aholi soni 2213 nafarni tashlil etadi. 30 yoshgacha bo‘lganlar 1162 nafarni (shundan, 0-6 yoshlilar 184 nafar, 7-16 yoshlilar 444 nafar, 16-30 yoshlilar 534 nafar) tashkil etmoqda. Vazirlar Mahkamasining 312-sonli qaroriga asosan, 4 nafar talaba yoshlarga kontrak to`lo`vining 50 foizi qoplab berildi. Vazirlar Mahkamasining 585-sonli qaroriga asosan, viloyat xokimligi tomonidan 2 nafar yoshlarimizga to`lov kontrakti to`lab berildi. 2 nafar yoshlarga chaqiruv rezervi xizmati uchun puli to`landi. Qayta kasbga yo`naltirilgan yoshlar 14 nafardan iborat bo`lib, ularning 4 nafari o`zini-o`zi band qilishi uchun subsidiya asosida asbob-uskunalar bilan ta’minlandi. Yoshlarning tadbirkorlikka bo`lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda 9 nafar yoshlarimizga mahallamiz hokim yordamchisi tomonidan imtiyozli kredit ajratilildi. 2 nafar yoshlar tadbirkorlikka o`qishga yo`naltirilib, maxsus SERTIFIKAT bilan mustaqil faoliyatlarini amalga oshirdilar. Tengdoshlarining bandligini ta’minlash maqsadida xususiy korxona faoliyatini yo`lga qo`ydilar.

Abdusattorov Shaxzod Ma’ruf og`li “AURUM BURGER” nomli xizmat ko‘rsatish shaxobchasi o`chib, 3 nafar yoshlarni ish bilan ta’minladi. Ammanbayev Axmadjon Azam og`li “Non ishlab chiqarish sehi”ni yo`lga qo`ydi. 7 nafar yoshlar o'zini-o'zi band qilgan holda ishlab kelmoqadalar. 14 nafar yoshlar mutaxassisligiga qarab ishlarga joylashtirildi. Hozirda “Temir daftar”da 6 nafar, “Ayollar daftari”da 95 nafar, “Yoshlar daftari”da 3 nafar oilalarimiz ro`yxatda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor oilalarimiz 55 nafarni tashkil etib, har bir yo`nalishda mahalladagi beshlik jamoatchilik nazorati vakillari bilan hamkorlikda ishlab kelmoqdamiz.

Shuni ishonch bilan ayta olamanki, bundan keyin ham yoshlar kamoloti, farovon va sog‘lom turmush tarzi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish - bizning bosh maqsadimiz bo‘lib qolaveradi. Zero, yoshlar ertamiz egalari, kelajagimiz bunyodkorlaridir!

**Mastura KARIMOVA, “Farhod” mahallasi Yoshlar yetakchisi.**

### *YO‘LLANMALAR QUYIDAGI TOIFADAGI KEKSALAR VA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARGA BERILADI:*

*-urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar;*
*-halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o‘tmagan beva xotinlari (beva erlari);*
*-respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;*
*-Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo‘lib qolgan shaxslar;*
*-yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro ob’yektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslar;*
*-I va II-guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, ko‘zi ojiz I-guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxs;*
*-o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar; yoshga doir pensiya oluvchilar.*

### *YO‘LLANMALARNI BERISH DAVRIYLIGI (BIRLAMCHI MUROJAAT ETGANLAR BUNDAN MUSTASNO) QUYIDAGILARDAN IBORAT BO‘LADI:*

a) **har yili - navbat asosida:**
*-urush nogironlariga tenglashtirilgan shaxslarga;*
*-respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;*
*-Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil AES halokati sababli nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga;*
*-yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro ob’yektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslarga;*
*-o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarga;*

**b) ikki yilda bir marotaba navbat asosida:**
*-urush qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarga;*
*-halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o‘tmagan beva xotinlariga (beva erlariga);*
*-I- va II-guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga, ko‘zi ojiz I-guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxsga;*



**v) uch yilda bir marotaba — navbat asosida yoshga doir pensiya oluvchilarga.**

*Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar yoki ularning vakillari davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga kelib murojaat etadilar yoki davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun YIDXPda ro‘yxatdan o‘tadilar. Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘zlari yoki vakillari kelib murojaat etgan taqdirda, Davlat xizmatlari markazi xodimi keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar nomidan, YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda esa - mustaqil tarzda belgilangan shakldagi so‘rovnomani elektron ravishda to‘ldiradilar.*

### *SO‘ROVNOMAGA QUYIDAGI HUJJATLAR ILOVA QILINADI:*

*-imtiyozdan foydalanish huquqini beruvchi hujjat (pensiya guvohnomasi, mavjud bo‘lsa, ushbu Reglamentning 4-bandida nazarda tutilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar) nusxasi;*
*-tibbiy ma’lumotnoma (davolovchi shifokor tomonidan beriladigan sanatoriy-sog‘lomlashtirish tavsiya etiladigan ma’lumotnoma).*

### *QUYIDAGI KASALLIKLAR MAVJUD BO‘LGANDA SHAXSGA TIBBIY MA’LUMOTNOMA BERILMAYDI:*

*-bemorning o‘zi va atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan qo‘pol va xulqiy buzilishlar bilan kechadigan ruhiy kasalliklar, xususan, tez-tez (har oyda 5 martadan ko‘p) tutqanoq sodir bo‘ladigan epilepsiya, muntazam tutqanoqlarga, epileptik maqomga, kun oxiriga borib bo‘shashuvchanlikka, disforiyalarga moyillik kasalliklar;*
*-jarayonning faol bosqichidagi sil kasalligi;*
*-yuqumli teri va soch kasalliklari;*
*-o‘tkir yuqumli kasalliklar;*
*-salbiy jarayondagi, yomon holatda o‘tadigan shish kasalliklari va retsidivlari;*
*-tanosil kasalliklari.*

**Davlat xizmati ko‘rsatilgani uchun yig‘im undirilmaydi. So‘rovnomada noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilishi davlat xizmati ko‘rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi. Davlat xizmatlari ko‘rsatishni boshqa asoslar bo‘yicha rad etish taqiqlanadi. Yo‘llanmalar sanatoriylarning mavjud o‘rinlaridan kelib chiqqan holda ajratilgan byudjet mablag‘lari doirasida navbat asosida beriladi. Yo‘llanmalar keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga 12 kunga, yo‘llanmalarning amal qilish muddati boshlanishidan 10 kun oldin (asosli sabablarga ko‘ra, qaytarilgan yo‘llanmalar bundan mustasno) beriladi.**

Murodqosim MURMATOV,
Bekobod shahar Adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi direktori.

# НА ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ ВЫДЕЛЕНО ЕЩЕ 1,3 ТРЛН СУМ

**Принято Постановление Президента от 10.04.2023 г. № ПП-117 «О мерах по дальнейшему совершенствованию практики инициативного бюджетирования и поддержке активных махаллей», сообщает Норма.уз.**

Согласно документу в процессах инициативного бюджетирования, проведенных в рамках первого сезона 2023 года, победителями признано 1 666 проектов стоимостью 1,5 трлн сум.

Дополнительно выделяется еще 1,3 трлн сум. на реализацию 1 309 проектов, каждый из которых в процессах инициативного бюджетирования, проведенных в рамках первого сезона 2023 года, набрал более 2 тысяч голосов, но не был признан победителем.

Определено, что дополнительно выделяемые средства направляются за счет средств, запланированных в рамках программ «Обод кишлок» и «Обод махалла» на 2023 год.

Установлено, что в рамках процессов инициативного бюджетирования руководящим работникам запрещается отдавать поручения своим работникам по обязательному сбору голосов. При этом принуждение к сбору голосов классифицировать как привлечение работников соответствующей организации к принудительному труду.

Утвержден План мер по дальнейшему совершенствованию процессов инициативного бюджетирования, устранению отдельных недостатков, наблюдающихся на местах, а также направленных на обеспечение более прозрачной и справедливой организации этих процессов.

# С 15 АПРЕЛЯ УПРОЩЕНА ПРОЦЕДУРА ПОЛУЧЕНИЯ ВОДИТЕЛЬСКИХ УДОСТОВЕРЕНИЙ

**Принято Постановление Правительства Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по упрощению порядка оформления национального водительского удостоверения» (№ 152 от 12.04.2023 года).**



Согласно Постановлению, с 15 апреля 2023 года вводится порядок оформления национальных водительских удостоверений также посредством Единого портала интерактивных государственных услуг (my.gov.uz) без непосредственного участия заявителей. При этом:

информация об отпечатках пальцев заявителей размещается на национальных водительских удостоверениях, при отсутствии информации об отпечатках пальцев заявителей в информационных системах заявители предоставляют образец своей электронной подписи;

заявки на получение национальных водительских удостоверений, а также на замену водительских прав старого образца на новые можно подавать онлайн через личный кабинет заявителей в ЕПИГУ ежедневно в течение 24 часов, независимо от выходных и праздничных дней;

будет создана возможность получать по почте недавно оформленные национальные водительские удостоверения.

До конца 2023 года все существующие водительские удостоверения будут оцифрованы с привязкой к личному идентификационному номеру физического лица.



# ЗАПУЩЕН ПРОЕКТ «МОЯ ДОРОГА» ПО РЕМОНТУ ВНУТРЕННИХ ДОРОГ

**Не менее 50% выделяемых средств будут направлены на основе общественного голосования. В Узбекистане стартовал проект «Моя дорога» по ремонту внутренних дорог. Об этом сообщает Министерство экономики и финансов.**

Его запустили 17 апреля на портале «Открытый бюджет», он будет проводиться раз в год.

В рамках районного (городского) бюджета не менее 50% средств, выделяемых на ремонт внутригородских дорог, будут направлены на основе общественного голосования.

Эти процессы будут осуществляться непосредственно через «Открытый бюджет», куда загружаются адрес (геоположение), ФИО, протяженность, состояние (асфальтированы, в ремонте) и другая информация внутренних дорог. Граждане получат возможность оставить свои предложения, выбрав вариант на основании геоданных из реестра.

Портал автоматически определит среднюю цену ремонта и общий объем внутренних дорог, подлежащих ремонтированию в каждом районе (городе) исходя из параметров районного (городского) бюджета. Порядок формирования предложений на основе общественного мнения следующий:

формируется общественное мнение непосредственно на основе предложений граждан;

в процессе направления предложений и голосования могут участвовать только совершеннолетние граждане;

граждане могут выдвигать только одно предложение по ремонту внутренних дорог и голосовать по одному предложению в год. Гражданам запрещается голосовать по внесенным ими предложениям;

внесение предложений по ремонту внутренних дорог осуществляется путем выбора одной из соответствующих внутренних дорог в реестре, представленном на портале;

внесение предложения на информационный портал осуществляется непосредственно путем регистрации на портале;

в каждом районе и городе они отсортированы сверху вниз по количеству голосов, отданных за предложения.

Процесс подачи предложений в рамках проекта продлится до 27 апреля. Голосование за представленные предложения будет проводиться с 28 апреля по 7 мая.

# В ПЕНСИОННОМ ФОНДЕ ОТРЕАГИРОВАЛИ НА СООБЩЕНИЯ О ПОВЫШЕНИИ ПЕНСИОННОГО ВОЗРАСТА



**В ведомстве прокомментировали рекомендации Всемирного банка о повышении пенсионного возраста до 65 лет.**

Ранее Всемирный банк рекомендовал Узбекистану в долгосрочной перспективе повысить пенсионный возраст. В частности, предлагалось медленное (3-4 месяца в год) повышение пенсионного возраста до 65 лет, начиная с 2025 года.

Во Внебюджетном пенсионном фонде при Министерстве финансов прокомментировали данную информацию.

«В настоящее время никаких предложений или проектов по этому поводу не поступало. Этот вопрос не стоит на повестке дня», - говорится в сообщении.

В ведомстве призвали граждан не беспокоиться по этому поводу.

Напомним, в настоящее время пенсионный возраст в Узбекистане у мужчин наступает с 60 лет, у женщин – с 55 лет.

# ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК ПРЕДУПРЕДИЛ О МОШЕННИКАХ



**В последние дни некоторые пользователи сети начали получать сообщения якобы от Центробанка Узбекистана, от пользователя с именем Markaziy Bank Uzbekistan о необходимости входа в Telegram-бот для отмены карточных операций. Объяснялось это мнимой необходимостью для предотвращения мошеннического вывода средств с карты.**

**Центральный банк предупредил, что эти сообщения и телеграм-бот не имеют к нему отношения. Рекомендуется игнорировать подобные сообщения и не переходить по каким-либо ссылкам.**

**Следует отметить, что с помощью ссылок мошенники заманивают пользователей на сайты, на которых они смогут получить данные о счете или карте, чтобы в дальнейшем вывести с них средства.**

**Кроме того, правонарушители часто делают фейковые страницы, похожие на официальные ресурсы тех или иных лиц, министерств и даже президента, о чем мы рассказывали ранее. Напоминаем, что следует внимательнее проверять адреса и обращать внимание на детали подобных сайтов. Не вводите данные карты на ресурсах, которые кажутся подозрительными. Лучше лишний раз проверить информацию в интернете или на официальных сайтах ведомств.**

# SUBSIDIYA ASOSIDA UY-JOY AJRATILISHI TARTIBLARI TAKOMILLASHTIRILMOQDA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashning amaldagi tartibiga 2023-yil 1-maydan boshlab quyidagi o'zgartirishlar kiritildi.**



### Endlikda:

*-banklarga rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslarga ipoteka kreditini ajratishda ularning to'lov qobiliyatini aniqlashning muqobil usullaridan foydalanishga, shu jumladan, qarz oluvchilarning bank kartasi aylanmasi, ijara, kommunal va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlarini inobatga oluvchi skoring tizimini joriy qilishga ruxsat etiladi;*

*-banklarga qarz oluvchi tomonidan to'langan dastlabki badal miqdori, imtiyozli davr muddati va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqib, subsidiyasiz ajratiladigan ipoteka kreditlari bo'yicha tabaqalashtirilgan foiz stavkalarini o'rnatish huquqi beriladi;*

*-professional ta'lim tashkilotlarining muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalaridagi maxsus fanlar bo'yicha dars berayotgan yoki o'quv amaliyotini o'tkazayotgan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'lim ustalariga imtiyozli shartlarda subsidiya xabarnomalarini berish tartibi joriy etiladi;*

*-uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruktsiya qilish uchun olinadigan ipoteka kreditlari bo'yicha berilgan subsidiya taqdim etish to'g'risidagi xabarnomalarning amal qilish muddati 4 oy etib belgilanadi;*

*-2023-yil uchun ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalar ajratishga doir arizalar tasdiqlangan parametrlar doirasida 2023-yil 1-maydan 2023-yil 1-dekabrga qadar qabul qilinadi.*

**H.BIBAYEV,**
**Bekobod shahar Adliya bo'limi boshlig'i.**

**Odamlar hisobini yuritish amaliyoti ilk bor miloddan avvalgi 3-ming yillikdan boshlangan. Bu jarayon, dastlab, Osiyo va Afrika davlatlari, Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Yaponiyani qamrab olgan. Bu islohotdan ko'zlangan maqsad soliq to'lovchilar va askarlikka yaroqli aholi sonini aniqlash bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda mazkur tartibot birmuncha takomillashgan. Aholini hisobga olish elementlari xo'jaliklarning yozma kitoblar, kadastrlardagi tavsiflari bilan uyg'unlashgan. Ularda odamlar yoki oilalar emas, balki, uy-joy kabi soliqqa tortish birliklari birinchi o'ringa qo'yilgan.**

## Aholini ro'yxatga olish



# ZAMONAVIY BOSQICH

Aholini ro'yxatida joylashgan va butun Finlyandiyani o'z ichiga olgan axborot tarkibi o'zining keng qamrovli ekanligi bilan ajralib turadi. Axborot bazasi mamlakatning har bir fuqarosi haqidagi aniq va e'tiborga loyiq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Fuqaro to'g'risidagi eng muhim ma'lumot uning ismi va familiyasi, tug'ilgan joyi va sanasi, hamda fuqaroligidir. Shuningdek, fuqaroning oilaviy ahvoli (turmush o'rtog'i, farzandlari va ota-onasi) va yashash joyi to'g'risidagi ma'lumot ham muhimdir.

Aholini universal ro'yxatga olish 1665-yilda Yangi Fransiya (Kvebek) koloniyasida bo'lib o'tdi. AQSHda 1790-yilda to'liq aholini ro'yxatga olish ishlari olib borildi. O'shanda o'n etti nafar politsiya xodimi mamlakat bo'ylab sayohat qilib, xonadonma-xonadon yurib, oltita savolga javob to'plashdi: uy egasining to'liq nomi, o'n olti yosh va undan katta yoshdagi ozod oq tanli erkaklar soni, o'n olti yoshdan kichik bo'lgan ozod oq tanli erkaklar soni, ozod oq tanli ayollar soni, boshqa ozod shaxslar soni, qullar soni. O'ttiz yil o'tgach, Italiya, Ispaniya, Angliya, Irlandiya, Avstriya, Fransiyada ro'yxatga olish vaqti keldi. 1851-yilda Xitoyda, keyin Yaponiyada (1871) va nihoyat Rossiyada aholi ro'yxatga olindi.

Zamonaviy bosqich XX-asrning o'rtalaridan boshlandi. XX-asrning oxiriga kelib, aholini ro'yxatga olish dunyoning deyarli barcha hududini qamrab oldi.

***BEKOBOD SHAHAR VA TUMAN STATISTIKA BO'LIMI***

## Salomatlik

# LEYSHMANIOZ

**LEYSHMANIOZ - juda keng tarqalgan parazitar kasallik bo'lib, odamlarda va hayvonlarda uchraydi. Jumladan, O'zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Jizzax viloyatining ayrim hududlarida, bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham kasallikning endemik o'choqlari bor.**



*Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 350 million odam bu kasallik bilan xastalangan. Har yili 14 million odam kasallanadi va 2 millionga yaqin yangi kasallik qayd qilinmoqda. Bundan tashqari , har yili visseral leyshmanioz bilan 50 mingta o'lim holatlari qayd qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 755 ta bemor leyshmanioz kasalligi bilan kasallangan. Shundan, 3 foizigina faol aniqlangan. O'zbekistonda bu kasallikning uch xil turi: visseral zoonoz, teri antroponozi va zoonoz leyshmaniozi tarqalgan.*

### Ko'riladigan choralar:

kasallikning ilk belgilari sezilsa, zudlik bilan shifokorga murojaat etilishi hamda uning tavsiyalari asosida davo-muolajalarini olish kerak.

### Profilaktik tadbirlar:

*Teri leyshmaniozi.* Profilaktik chora-tadbirlar uch bosqichdan tashkil topgan. Bularning birinchisi kasallik manbai, ikkinchisi tashuvchisi. Uchinchisi esa yuqtiradigan ob'ektlar. Ulardan istalgan bittasining bo'lmasligi kasallik zanjirini uzadi va kasallikka barham beriladi yoki uchchalasini ham zararsizlantirish lozim.

Visseral leyshmaniozda kasallik manbai uy hayvonlaridan itlar, yovvoyi hayvonlardan esa chiyabo'ri, bo'ri, tulki va jayronlar hisoblanadi. Kasallik manbai bo'lgan leyshmanioz kasalligi bilan kasallangan daydi itlarni yo'qotish va veterinariya xodimlari tomonidan xonaki itlarni tekshirtirib turish kerak. Zoonoz leyshmaniozda kasallik manbai kemiruvchilar hisoblanadi. SHuning uchun barcha e'tibor kemiruvchilarni yo'q qilishga qaratiladi.

Odamlar turar joylarining yerto'lalari, molxonalar, tovuqxonalar va qushlarning inlari ham iskaptopar chivinlarning ko'payish joyi hisoblanadi. Iskaptoparlarga qarshi kurashishda aholi puntlarida chivinlar ko'payish joylarida may-iyul oylari dezinseksiya ishlari o'tkazish, o'ralar va hojatxonalarni doimo yopiq holda bo'lishi va dorilab turish zarur. Uy yaqinida xo'jalik hamda maishiy chiqindilarning to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik, aholi punklarining sanitariya holatini yaxshilash, obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim. Ushbu tadbirlarni har birimiz o'z yashash joyimizda o'tkazib tursak, leyshmanioz kasalligi bilan kasallanishning oldini olgan bo'lamiz. Sog'ligingiz o'z qo'lingizda ekanligini unutmang!

**M. RAHMANOVA,**
**Bekobod shahar SEO va JS bo'limi parazitolog vrach yordamchisi.**

**Diyorimizda bahor hamda kuz oylarida qo'ziqorinlar o'sa boshlashi, qo'ziqorin iste'mol qilishni yoqtiradiganlar uchun qulay fursat hisoblanadi. Ko'cha-ko'ylar, katta avtomagistral ko'chalarida noma'lum shaxslar tomonidan qo'ziqorinlarni sotish holatlari kuzatiladi. Iste'mol qilish mumkin bo'lgan va zaharli qo'ziqorinlarni bir-biridan ajratish juda murakkab. Ko'p hollarda ular bir-biriga o'xshab ketadi. Iste'molga yaroqli qo'ziqorinlarga – oq qo'ziqorin, qizil qo'ziqorin, shampinion va opyonok kiradi. Zaharli qo'ziqorinlarga – qizil muxamor, kulrang muxamor, satanin, sariq soxta qo'ziqorin va boshqalar kiradi. Tuzlangan yoki marinovka qilingan qo'ziqorinlar ruxlangan idishlarda saqlaganda ham zaharlanish ro'y berishi mumkin.**




# ZAHARLANISHDAN EHTIYOT BO'LING!

Avtomagistral yo'l yoqalari, zaharli og'ular hamda kimyoviy moddalar saqlanadigan omborxonalarning tevarak-atroflarida o'sadigan qo'ziqorinlardan ham zaharlanish mumkin. Chunki mashinalardan chiqadigan is-gazlar va zaharli moddalarni qo'ziqorinlar o'z tarkibiga singdirib, iste'molga yaroqli bo'lgan qo'ziqorinlardan ham zaharlanib qolish mumkin. Odatda, qo'ziqorinni iste'mol qilganda bir yoki bir necha shaxslar zaharlanadi. Qo'ziqorindan zaharlangan vaqtda kasallik belgilari iste'mol qilingan qo'ziqorinning turiga qarab, turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, qizil muxamor tarkibida muskaridin va muskarin alkaoidalari mavjud. Qizil muxamordan zaharlanganda kasallik belgilar 1-2 soat o'tgach namoyon bo'ladi. Asab tizimi faoliyatida o'zgarishlar, so'lak oqishi, ko'p terlash, ko'zdan yosh oqishi kuzatiladi, tomir urishi sekinlashadi va sustlashadi, alahsirash, titrash kuzatiladi, bemorlarda ayniqsa, ko'z qorachig'ining kengayishi yoki ularning torayishining ta'siri natijasida kuzatiladi. Bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatilsa, odatda 1-2 kundan keyin sog'ayib ketadi. O'z vaqtida davo choralari ko'rilmagan vaqtlarda bemorning ahvoli og'irlashib, o'lim bilan yakun topishi ham mumkin.

Qo'ziqorinlarni turg'un savdo shoxobchalari, belgilangan joylardan xarid qiling. Xarid davomida sifatini kafolotlovchi tegishli hujjatlari borligiga e'tibor qarating. Bozorlar va savdo do'konlaridan qo'ziqorin xarid qilmoqchi bo'lsangiz, gigiyenik va muvofiqlik sertifikatlari hamda veterinariya-sanitariya laboratoriya mutaxassislari tomonidan beriladigan ma'lumotnomani talab qilish mumkin. Aks holda, o'z salomatligingizning har bir yaprog'iga o'zingiz igna sanchgan bo'lasiz, hattoki, o'z umringizga zavol qilishingiz mumkin.

**S.VAXABOVA,**
**Bekobod shahar SEO va JS bo'limi sanitar vrach yordamchisi.**

# ЭФФЕКТИВНАЯ СИСТЕМА ДИАЛОГА С НАРОДОМ



**В целях дальнейшего повышения эффективности работы с обращениями граждан, изучения и своевременного решения вопросов на местах и совершенствования системы прямого диалога с населением, продолжаются встречи в формате личных приемов граждан.**

19 апреля в большом актовом зале хокимията города состоялся очередной прием граждан с участием ответственных руководителей – хокима Бекабада Н.Бабаева, прокурора Б.Ильясова, заведующего городской Народной приемной Г. Сатторова.
Население рассказало о наболевших проблемах, обращали внимание представителей исполнительной власти на конкретную ситуацию, просили действенной помощи.
Одна из важных целей выездных приемов на местах — подсказать заявителям верную юридическую формулу решения проблемы, держать это решение на контроле.
На приеме поступили обращения от 47 граждан по различным вопросам.
23 из этих обращений граждан были решены на месте, 16 - получили юридическую поддержку, а остальные 8 были взяты на контроль.

# ИДЕТ ПОДГОТОВКА К РЕФЕРЕНДУМУ

**Известно, что в соответствии с постановлениями Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 10 марта 2023 года и Сената Олий Мажлиса от 14 марта, референдум Республики Узбекистан по проекту Конституционного закона Республики Узбекистан «О Конституции Республики Узбекистан» будет проведен в воскресенье, 30 апреля 2023 года.**
**С целью поэтапного осуществления мероприятий, связанных с проведением референдума в сроки, определенные законодательством, утвержден календарный план подготовки и проведения референдума Республики Узбекистан. Он обеспечит правильную и эффективную организацию процессов референдума с соблюдением требований закона, при рациональном распределении имеющихся сил и мобилизации потенциала.**




К сегодняшнему дню в стране сформированы 10 758 участков, в комиссиях работают 117 тысяч человек. Утверждены форма и описание бюллетеней, в том числе бюллетени, созданные с помощью шрифта Брайля.
Как идет процесс подготовки к всенародному референдуму по обновленной Конституции страны в Бекабаде? Для ответа на этот и другие вопросы мы побывали в участках №150 и 151.
В день референдума более 800 избирателей схода граждан «Тинчлик» будут голосовать на участке № 150, который расположен в здании музыкальной школы № 20.
По словам председателя комиссии Бахтиера Ахмедова, здесь фактически уже завершены все подготовительные работы к голосованию.
